



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I

Muborak Ramazon hayitini nishonlash to'g'risida

Xalqimiz uchun asrlar davomida ezgulik, mehr-oqibat, xayru saxovat, ma'naviy poklanish ayyomi bo'lib kelayotgan muborak Ramazon oyini bu yil yurtimiz mo'min-musulmonlari o'zgacha shukuh va hamjihatlik bilan o'tkazdilar. Ayniqsa, rahmat va mag'firat nurlari yog'iladigan ushbu saodatli kunlarda kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslarga moddiy va ma'naviy yordamlar ko'rsatilayotgani, barcha hududlarimizda keng jamoatchilik vakillari ishtirokida ehson dasturxonlari yoziq, el-yurtimizning tinchligi, baxti va kelajagi uchun duoyi fothalar qilinayotgani bu o'zining fayzu tarovatini yanada oshirmoqda.

Hech shubhasiz, bunday savobli va oliyanob ishlar yer yuzidagi barcha insonlarni doimo do'st va birodar bo'lib yashashga da'vat etadigan muqaddas islom dinimizning ezgu g'oyalari chuqur his etgan holda, mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlikni, turli millat va konfessiyalar o'rtasidagi totuvlikni mustahkamlashga, bugungi yorug' hayotimizning qadriga yetib, uni yanada obod va farovon etishga xizmat qilmoqda.

Muborak Ramazon hayiti kunlarida yanada yaqqol namoyon bo'ladigan ana shunday an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamda keng targ'ib etish maqsadida:

1. Joriy yilda Ramazon hayitining birinchi kuni **10 aprel** — chorshanba kuniga to'g'ri kelishi haqidagi O'zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma'lumot uchun qabul qilinib, mamlakatimizda **2024-yil 10-aprel kuni Ramazon hayiti bayrami** sifatida keng nishonlansin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda Ramazon hayitini xalqimizning milliy an'ana va urf-odatlariga uyg'un holda o'tkazish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Turizm qo'mitasi Transport vazirligi bilan birgalikda yurtdoshlarimiz uchun Ramazon hayiti kunlarida mo'tabar ziyoratgohlar va tarixiy qadamlarga ziyoratlarni tashkil etish maqsadida qulay sharoit va imkoniyatlar yaratilsin.

3. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ramazon hayitini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi M.M. Kamilov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti SH.MIRZIYOYEV**

2024-yil 8-aprel

Gruziya parlamenti raisi Samarqandga keldi



Gruziya parlamenti raisi Shalva Papuashvili boshchiligidagi delegatsiya Samarqand shahrida bo'ldi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri Nuriddinjon Ismoilov hamrohligidagi delegatsiyani temiryo'l vokzalida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov kutib oldi.

Delegatsiya a'zolari Amir Temur maqbarasi, Registon maydoni, "Afosiyob" muzeyida bo'lib, boy madaniy merosimiz bilan tanishdi. Birinchi Prezidentimiz

Islom Karimov qabriga gulchambarlar qo'yib, hurmat bajo keltirishdi.

- Uzoq o'timish va buyuk tarixga ega bo'lgan Samarqandda bo'lish har bir kishiga o'zgacha his-hayajon bag'ishlaydi, - deydi Shalva Papuashvili. - Bu yerda tarix va bugunni uyg'un holda ko'rish mumkin. Havosi, tabiati, odamlari ham menga yoqdi. Ayniqsa, tarixiy obidalar, ularning betakror me'moriy yechimi, har bir inshootning asrlar davomida asrab-avaylab kelinayotgani hayratlanarli.

A.ISROILOV.

SO'ZGA SADOQAT

Samarqandda Oliy Majlis
Senati a'zosi, O'zbekistonda
xizmat ko'rsatgan jurnalist
Farmon Toshev 70 yoshga
to'lishi munosabati bilan
ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

etib, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Bu xizmatlari uchun "Mehnat shuhrati", "El-yurt hurmati" ordenlari, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Davlatimiz rahbarining

- Keyingi yillarda jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining o'rni nihoyatda oshdi, - deydi Oliy Majlis Senati a'zosi Mahmudjon Parpiyev. - Ayniqsa, davlat boshqaruvi organlari ochiqligini ta'minlash, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda mazkur sohaning roli kengayib bormoqda. Parlament yuqori palatasida axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi tashkil etilishi ham jamiyatimizdagi ana shu o'zgarishlar natijasidir. Farmon Toshev avvalo, jurnalist sifatida mazkur qo'mita ishida faol ishtirok etmoqda. Sohaga oid qonun va boshqa hujjatlarni qabul qilishda shu soha vakili o'laroq asosli takliflar, fikrlar beradi.

Shuningdek, tadbirda Samarqand adabiy muhiti va jurnalistika maktabi an'analari hamda uning bugungi holati to'g'risida so'z bordi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari G'ayrat Majid, Vazirlar Mahkamasi davlat tilini rivojlantirish departamenti rahbari, shoir No-dir Jonuzoq, ma'rifatparvar alloma Saidrizo Alizodaning nabirasi Farhod Alizoda bu borada Farmon Toshev faoliyati va u rahbarlik qilayotgan "Zarafshon" va "Samarkandskiy vestnik" gazetalari o'rniga to'xtaldi.

Tadbir doirasida ijodkorning yaqinda chop etilgan "Mezon" nomli asari taqdimoti o'tkazildi.

O'z muxbirimiz.



Tadbir avvalida viloyat hokimi E.Turdimov so'zga chiqib, Farmon Toshevni tabrikladi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Faxriy yorlig'ini topshirdi.

- Samarqand ma'naviy muhitini Farmon Toshevsiz tasavvur qilish qiyin, - dedi E.Turdimov. - U kishi bugun nafaqat ijodkor, balki deputat, senator sifatida jamiyat hayotida faol ishtirok

etib, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Bu xizmatlari uchun "Mehnat shuhrati", "El-yurt hurmati" ordenlari, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist" faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Davlatimiz rahbarining

"Nuroniylar jamg'armasi respublika boshqaruvi raisi, O'zbekiston Qahramoni Sodiqjon Turdiyev, O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori Abdusaid Ko'chimov, Samarqand davlat universiteti rektori Rustam Xolmurodov ham ijodkor haqida iliq fikrlarni bildirdi.

2024-yil 5-aprelda Prezidentimiz "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandlegini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qildi.

Qarorga ko'ra, tuman hokimliklari zaxirasidagi 60 ming gektar yer maydoni elektron onlayn auksion savdolariga qo'yilib, dehqon xo'jaliklarini tashkil etish uchun yoshlarga ijaraga beriladi.

Elektron onlayn auksion savdolari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali "mahalla yetiligi"ning tavsiyasi bilan shakllantiriladigan ro'yxatga kiritilgan yoshlar (talabgorlar) o'rtasida o'tkaziladi.

Bunda yer maydonlarini ijaraga berish

Yoshlar uchun 60 ming gektar yer ajratiladi

bo'yicha elektron onlayn auksion savdolari g'oliblariga yer uchastkasi narxini 10 yil muddatga teng ulushlarda foizsiz bo'lib to'lashga ruxsat beriladi. Zakalat puli BHMning 1 baravari (340 ming so'm) miqdorida belgilanadi.

Yer olgan yoshlar Agrobankning "Fermierlar maktabi"da hosildor, eksportbop ekinlar yetishtirishga o'qitiladi. Mini-texnika, urug' va ko'chatlar sotib olishga "Yoshlar daftari" jamg'armasi hamda Fermierlar jamg'armasidan subsidiya ajratiladi. Dehqon yoshlarga eksportchi va qayta

ishlovchi tadbirkorlar kooperatsiya asosida birkiritiladi.

Talabgorlarga sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, gul, ko'katlar, makkajo'xori doni, dukkakli va moyli ekinlar yetishtirishga sug'oriladigan ekin maydonlari, bog'dorchilik-uzumchilik yunalishlari uchun ko'p yillik daraxtzorlar yoki samarasiz bog'lap yer maydonlari, dorivor o'simliklar yetishtirish, chorvachilik yo'nalishlari uchun chorva ozuqasi ekinlarini yetishtirishga mo'ljallangan, lalmi, bo'z, yaylov va yangi o'zlashtirilgan yer maydonlari 30 yil

Prezident qaroriga ko'ra

muddatgacha kichik lotlarda "Bir massiv - bir mahsulot" tamoyili asosida ijaraga beriladi.

Bunda elektron onlayn auksion savdolarida 1 nafar talabgor ishtirok etgan taqdirda, istisno tariqasida, auksion o'tkazilgan hisoblanadi hamda ushbu imtiyozli shartlar asosida o'tkaziladigan auksion savdolarida yoshlarga yer maydonini faqat bir marotaba ijaraga olishga ruxsat beriladi.

Yer maydonlarini elektron onlayn auksion savdolari orqali ijaraga olgan yoshlar "Temir daftari", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"dan chiqarilmaydi va ular uchun qonunchilikda belgilangan barcha imtiyoz va preferensiyalar saqlab qolinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi Farmoniga sharh

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Muborak Ramazon hayitini nishonlash arafasida xalqimizga xos ezgulik, bag'rikenglik, insonparvarlik, mehr-oqibat va kechirimli bo'lish kabi oliyanob fazilatlarining yorqin ifodasi sifatida "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi Farmonni imzoladi.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o'tayotgan hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan **426 nafar shaxs afv etildi.**

Afv etilgan shaxslarning **135 nafari** asosiy jazodan to'liq ozod etildi, **200 nafari** jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, **26 nafari**ning ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, **65 nafar** shaxslarga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

Afv etilganlarning **11 nafarini** chet el fuqarolari, **50 nafarini** ayol, **13 nafarini** 60 yoshdan oshgan erkaklar, **157 nafari**ni yoshlar (shulardan, **3 nafari**ni voyaga yetmaganlar) hamda **5 nafarini** taqiqlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag'riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishlari, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda munosib o'rin topishlari uchun ularga ko'mak berish bo'yicha mas'ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'z faoliyatida aholining huquqiy xabardorligini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Chunki murojaatlar tahlili fuqarolarning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash, yashash sharoitlarini yaxshilash borasidagi islohotlardan xabardor etish zarurligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun 2022-yildan respublikaning chekka hududlarida mahallalar kesimida aholining huquqiy savodxonligi hamda davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlardan xabardorligini oshirishga qaratilgan "Ombudsman maktabi" loyihasi amalga oshirilmoqda.

Chekka hududda yashovchi fuqarolar

"Ombudsman maktabi"ning nafini his qilyapti

Loyiha doirasidagi navbatdagi tadbir Paxtachi tumanidagi Burqut mahallasida o'tkazildi.

- Shu kuni fuqarolardan 20 ga yaqin murojaat qabul qildik, - deydi Ombudsmaning viloyatdagi mintaqaviy vakili Diyor Husanov.

- Bundan tashqari, tadbirga kasaba uyushmalar federatsiyasining viloyat kengashi va ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat boshqarmasi ham jalb etildi. Ular tomonidan "Ayollar daftari"da turgan fuqarolarga Xorazm viloyatiga aprel oyiga rejalashtirilgan 3 kunlik bepul sayohat uchun sertifikatlar topshirildi. Shuningdek, 8 nafar nogironligi bor fuqaroga

nogironlik aravachasi, hassa, eshitish moslamalari va qo'ltiqayoq berildi.

"Ombudsman maktabi" doirasida viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan hamkorlikda tor doiradagi mutaxassislar jalb etilgan holda tibbiy ko'rik o'tkazildi. Ko'rik natijalari bo'yicha 28 fuqaroni tuman va viloyat darajasida sog'lomlashtirish, jumladan, 5 nafar fuqaroni bepul operatsiya qilish choralarini ko'rish belgilandi. 10 turdagi dori vositalari tarqatildi.

Shu bilan bir qatorda, Adliya boshqarmasining davlat xizmatlari xodimlari tomonidan 14 nafar fuqaroga mobil xizmatlar ko'rsatildi.

Jurnalistlarning o'z bog'i bo'ladi

Bahorgi mavsumda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida viloyatimizda 10 million 208 ming tupdan ortiq ko'chat ekish belgilangan. Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 3-aprelgacha viloyatda 8,8 million tupdan ortiq ko'chat ekilib, elektron platformaga kiritilgan.

Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi, viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmalari tashabbusi bilan Samarqand tumani Ohalik mahallasida "Jurnalistlar bog'i" tashkil etildi. Loyiha boshlangandan buyon ilk bor jurnalistlar bog'ini tashkil etish g'oyasi amalga oshirildi va buning uchun tuman hokimligi 2 gektar yer maydoni ajratdi. Ko'chat ekish ishlari davlatda faoliyat olib borayotgan 100 dan ortiq jurnalist, blogger va jamoat faollari ishtirok etdi.

Bir gektar maydondagi daraxt bir kecha-kunduzda 220-275 kilogramgacha karbonat angidrid gazini yutib, 180-215 kilogram kislород ajratadi, - deydi jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi raisi Akram Haydarov. - Bu miqdor o'rtacha 500 kishini kun davomida kislород bilan ta'minlay oladi. Eng ko'p kislородni qayrag'och va archa ishlab chiqaradi. 1 gektar ekinzor bir soatda 200 nafar inson chiqargan karbonat angidrid gazini yutadi. Bir kishining yillik kislородga bo'lgan ehtiyojini 0,1-0,3 gektar o'rmon qoplay oladi. Bitta katta daraxt 1 kishiga



yetarli kislород ajratib beradi. Daraxtlar faqatgina kislород manbai emas. Daraxt va butalar shovqinni yutib, havodagi changni ham ushlab qoladi. Shu bois ijodkorlar tabiatni asrashga hissa qo'shish, yashillikni ta'minlash va yosh avlodga musaffo havo qoldirishga erishish umidida ko'chat ekdik.

Daraxt o'stirish uchun har qanday maydonga to'g'ri kelgan ko'chatni ekib bo'lmaydi, - deydi viloyat o'rmon xo'jaligi boshqarmasi Darg'om uchastkasi bo'lim boshlig'i Mardon O'tamurodov. - 44 yildan buyon o'rmonchilik sohasida ishlab, qanday maydonga qaysi turdagi ko'chat mos kelishi, xorijiy va mahalliy ko'chatlarning ekish tartiblarini tajribamdan o'tkazdim. "Jurnalistlar bog'i" uchun ajratilgan maydon tog' etagida joylashgan va toshloq, tashlandiq joy. Shu bois bu yerga katalpa, yasin va qayrag'och kabi manzarali daraxt

ko'chatlari ekildi. Chunki bu daraxtlar suvsizlikka chidamli, unuvchanligi yuqori hisoblanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, bu yil 7 tuman va shaharda 28,4 gektar maydonda "Yashil bog'" barpo etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Ko'chatlarni sug'orish uchun 16 ta quduq qazilib, 26 kilometr masofada sug'orish tizimi yaratiladi. Viloyatdagi atrof-muhitga ta'sir ko'rsatayotgan 58 ta sanoat korxonasi tomonidan 75 ming tup daraxt ko'chati ekilib, "Yashil belbog'" yaratiladi. Bugungacha bu kabi korxonalar tomonidan 48 ming tup daraxt va buta ko'chatlari ekildi.

Bundan tashqari, yil yakuniga qadar 64,15 gektarda "Yashil jamoat parklari" barpo etiladi. Buning uchun barcha zaruriy hujjatlar qabul qilinib, kerakli yer maydoni ajratilgan.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasiga ko'ra, joriy yilning yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 256,4 milliard so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 143,4 foizni tashkil etdi.

Tibbiy sug'urta uchun aholidan yillik to'lov talab etilmaydi

2025-yildan Samarqandda davlat tibbiy sug'urta tizimi to'la joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyulda qabul qilingan "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori imtiyozli toifadagi shaxslarni sog'lomlashtirish borasida yangicha yondashuv va aholi uchun qulayliklarni taqdim etdi. Shu maqsadda Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tashkil etildi.

Qarorga muvofiq, imtiyozli toifadagi shaxslar elektron yo'llanma asosida davolanadi va ko'rsatilgan tibbiy yordamni Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi qoplab beradi.

Ayni vaqtda davlat budjeti mablag'lari hisobidan davolanadigan kasalliklar ro'yxati tibbiyot muassasalarida kesimida shakllantirilgan va har bir kasallik uchun bazaviy narxlar tasdiqlangan. Jamg'arma imtiyozli toifadagi shaxslarni davolash uchun 14 ta respublika ixtisoslashtirilgan markazi, 11 ta respublika darajasidagi muassasa, 41 ta hududiy, 30 ta nodavlat tibbiyot tashkiloti bilan hamkorlik qilmog'ida. Ular orasida viloyatimizdagi 6 ta shifoxona (viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot muassasasi, viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot muassasasi, kardiologiya, travmatologiya, ko'z kasalliklari hamda tibbiyot universiteti ko'p tarmoqli klinikasi) ham bor.

Jamg'arma tomonidan 2022-yilda 712 nafar bemorni davolashga 9,2 milliard so'm to'lab berilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 43 milliard 955 million so'mdan oshdi. Mazkur mablag'lar hisobidan 5211 nafar bemorda yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari bajarildi. Misol uchun, Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filialida 516 nafar, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida 502 nafar (shundan 15 nafarida buyrak transplantatsiyasi) bemorda jarrohlik amalga oshirildi.

Ko'pchilik tibbiy sug'urta tizimi mexanizmi to'liq joriy etilsa, uning tartibi qanday bo'ladi, aholidan bu uchun alohida to'lov talab etiladimi, deb so'rashadi. Davlat tibbiy sug'ur-

tasini joriy etishda aholidan badal va ajratmalar talab qilinmaydi, balki ularning salomatligi davlat hisobidan sug'urtalanadi. Tibbiy xizmatlar bozoringa davlat tomonidan tartibga solinishi, aholining barcha qatlamlari uchun tibbiy yordamning mavjudligini kafolatlaydi.

Tibbiy sug'urta mexanizmlarini tuman (shahar) tibbiyot muassasalarida joriy etish orqali aholi davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmatlar va dori vositalari bilan ta'minlanadi. Masalan, kafolatlangan tibbiy yordam hajmiga kiritilgan shifokor ko'rigi, diagnostik va laborator tekshiruvlar, dori vositalari bemorlarga davlat hisobidan bepul taqdim etiladi.

Oilaviy shifokorlar yozadigan retsept hamda tor soha mutaxassislarining tavsiyasiga ko'ra belgilangan dori vositalari tibbiy ko'rsatmalarga asosan bepul beriladi. Shuningdek, shifoxonaga yotqizish va tor soha mutaxassislariga murojaat qilish oilaviy shifokor yo'llanmasi asosida amalga oshiriladi. Bu bilan tibbiy xizmatlar uchun norasmiy to'lovlarning oldi olinadi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tibbiyot muassasalarini moliyalashtiradi. Bunda poliklinikalarda "aholi jon boshiga" va shifoxonalarda "har bir davolangan holat" bo'yicha moliyalashtirishning yangi usullari qo'llaniladi. Shu bilan birga, tibbiy xizmatlar sifati, samaradorligi va natijasi monitoring qilib boriladi.

Amalga oshirilayotgan o'zgarishlardan asosiy maqsad - aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'lamini kengaytirish, sohaga bosqichma-bosqich tibbiy sug'urta tizimini joriy etish, tibbiy xizmatlar bozorida zamonaviy raqobat muhitini yaratish, shu asosda aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Qolaversa, tez tibbiy yordam tizimining transport, barcha tibbiyot muassasalarining dori-darmon bilan ta'minlanishi sezilarli darajada yaxshilanadi, tibbiyot xodimlarining oylik maoshi bosqichma-bosqich oshirib boriladi.

Davron RAZZOQOV,
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi
hududiy bo'lim mutaxassisi.

DIQQAT, KAMERA nazoratidasiz!



Bugungi kunda viloyatimizda o'zboshimchalik bilan chiqindini duch kelgan joyga tashlab ketish holatlarining oldini olish maqsadida hududlarda foto va video qayd etish vositalari o'rnatilib, qoidabuzarlik holatlari aniqlanmoqda.

- "Xavfsiz shahar" integratsiyalangan tizimi doirasida kameralar orqali ekologik huquqbuzarliklarni qayd etish yo'lga qo'yildi, - deydi viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi chiqindilar bilan

ishlash bo'limi boshlig'i Akmal Qo'shboyev. Jumladan, Samarqand shahri va tumanining eng og'ir deb topilgan hududlarida o'rnatilgan 25 ta video kuzatuv kameralari orqali 1-fevraldan 26-martgacha 361 marta noqonuniy maishiy chiqin-

di tashlash holati qayd etildi. Chiqindi tashlagan 145 nafar fuqaroning har biriga 1 million 20 ming so'mdan ma'muriy jarama rasmiylashtirildi.

Joriy yil oxirigacha yana 75 ta video kamera keltirilib, tuman va shaharlarda o'rnatilishi ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda viloyatimizda bir kunda 1381 tonna chiqindi to'planib, 13 ta poligonga olib borilib, zararsizlantiriladi. Birgina Samarqand shahri va tumani-ning o'zida kuniga 700 tonnadan ziyod maishiy chiqindi to'planadi.

Tahsilarga ko'ra, bir inson kuniga 0,78 gram, bir oyda 24,4 kilogram chiqindi chiqarar ekan. Bu bir yilda 284,7 tonnani tashkil etadi. Agar buni viloyatimizda istiqomat qiluvchi 4 millionga yaqin aholiga hisoblasak, qancha bo'lishini tasavvur qilib ko'ring.

Eslatib o'tamiz, Prezident qaroriga ko'ra, 2025-yilning 1-yanvaridan chiqindi xizmatlari bo'yicha qarzdorlik uchun elektr energiyasiga to'lovni amalga oshirishda cheklolvar o'rnatiladi. Ya'ni, chiqindi uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmagan har qanday xo'jalik eng muhim ehtiyojlardan biri bo'lgan elektr energiyasiz qoladi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Jomboy tumanidagi Eski Jomboy mahallasida yashovchi temirchi usta Olimjon Ergashevni ko'pchilik yaxshi taniydi.

- Ancha yil avval Rossiya yadagi metal zavodida ishlab, bu hunar sirlarini o'rgandim, - deydi Olimjon usta. - O'n yil oldin aukSIONda mahallamiz hududidan yer sotib olib, Xurshid Karimov bilan temir darvozalar tayyorlashga kirishdik. Keyinchalik ustaxonamizda 4 nafar ishchi bilan darvoza, turli temir mahsulotlari tayyorlashni yo'lga qo'ydik. Hozir zamonaviy darvozalar o'rtacha o'n million so'mgacha baholanadi va bizga har oyda besh-tacha darvozaga buyurtma tushadi.

Shu kunlarda panjara orasi-ga qo'yiladigan temir gullarni

Temirchilikdagi ish o'rinlari doimiy(mi?)



ishlab chiqarish uchun vodikdan dastgoh keltirilmoqda.

Katta qishloq mahallasidagi Bekzod Abdusamatov ham temirchilikning shu turini tanladi va shogirdlikka tushib, ayni damda u ham besh nafar yoshni ish bilan ta'minlagan. Temirchilik hunari mashaqqatli bo'lib, doimiy diqqat-e'tiborni talab qiladi. Yetmish besh foiz qo'l mehnati bilan tayyorlanayotgan darvoza yoki boshqa turdagi buyurtmalar o'ta e'tiborli o'lcham va to'g'ri hisob-kitob evaziga yaratiladi.

Usta temirchi Olim Ergashev Samarqand shahridagi biznes maktabida tahsil olib, sertifikatga ham ega bo'ldi. Endi u yana ko'plab yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va ko'proq yoshlarga hunar o'rgatish istagida.

Nishon MELIYEV.

O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASINING SAMARQAND VILOYATI KENGASHI

**Aziz yurtdoshlar! Butun musulmon ahli uchun
muqaddas ayyom – muborak Ramazon hayiti
barchangizga qutlug' bo'lsin!**



O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARI KASABA UYUSHMASI SAMARQAND VILOYAT KENGASHI

**Barcha yurtdoshlarimizni muborak Ramazon hayiti
bilan tabriklaydi. Niyati pok, maqsadlari ulug'
xalqimizning ushbu saodatli onlarda qilayotgan
toat-ibodatlarini va duolari ijobat bo'lsin!**



Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-168-son va 2023-yil 24-martdagi PQ-102-sonli qarorlariga muvofiq, davlat va davlat ishtirokidagi korxonalar bilan bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari elektron savdo platformasi orqali sotilishi belgilangan. Shunga ko'ra, quyidagi davlat mulki obyektlari bo'yicha

SAVDOLAR E'LON QILINADI

T/r	Aktiv nomi	Balansda saqlovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumiy yer maydoni (ga.)	Bino va inshootlarning umumiy egallagan maydoni (kv.m.)	Savdolarga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm)	Savdo sanasi	Ariza berishning oxirgi muddati
1	Bo'sh turgan 2-son notarial idorasi binosi	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi	Toyloq tumani "Bog'izog'on" MFY, Bog'izog'on qishlog'i, 37	0,0057	58	73 127 000,0	10.05.2024 y.	10.05.2024 y.
2	Bo'sh turgan bino va inshootlar	Urgut tumani hokimligi	Urgut tumani "Quy Mo'minobod" MFY	0,1	320,4	433 086 000	10.05.2024 y.	10.05.2024 y.
3	Sobiq ma'muriy bino	Davlat kadastrlari palatasining Samarqand viloyati boshqarmasi	Qo'shrabot tumani "Mustaqillik" MFY	0,05	171,2	214 515 000	10.05.2024 y.	10.05.2024 y.

Auksionga qatnashish tartibi to'g'risida:

Ushbu obyektlarni "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi "Elektron onlayn auksionlarni tashkil etish" AJning "e-auksion.uz" sayt maydonchasida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolarda qatnashish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalar bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar Davlat xizmatlari markazidan yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

Auksionda qatnashish uchun ariza berish:

Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqamli imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "e-auksion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsiy

kabinet"lari orqali kirib, o'tkaziladigan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli obyektning tanlashi va u haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkka tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosida qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar mulk haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov hujjatida auksiondagi LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosida qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirokchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolangan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirokchining "Shaxsiy kabinet"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabari keladi. Auksion savdosida qatnashish uchun ariza berish saytda ko'rsatilgan muddatda to'xtatiladi.

Auksion jarayoni:

Ishtirokchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng, savdo boshlanadigan kunda (vaqtda) ishtirokchilar "e-auksion.uz" saytida maxsus login va parollarini tergan holda "Shaxsiy kabinet"ga kiradi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksionini tanlaydi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirok etishni tasdiqlash" so'raladi, ishtirok etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirok etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionda qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqam beriladi. Auksionning boshlanishi ishtirokchilardan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadamga oshirilgan narxda sotib olish bo'yicha taklifni tasdiqlashni so'rashdan boshlanadi. Agar taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirokchilari

laridan biri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana 10 daqiqaga uzaytiriladi.

Agar tasdiqlangan oxirgi taklifdan so'ng 10 daqiqa davomida keyingi oshirilgan LOT narxi bo'yicha taklif auksion ishtirokchilarining birortasi tomonidan tasdiqlanmasa, savdo auksion natijalari haqidagi bayonoma avtomatik tarzda shakllantirilgan holda yakunlanadi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirokchi auksion g'olibi deb topiladi. Shundan so'ng ishtirokchiga g'oliblik bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirokchi bilan kelishgan holda pochta orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari bo'yicha g'oliblik bayonnomasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kundan kechikmay oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Auksionda ishtirok etgandan so'ng g'olib bo'lmagan ishtirokchilarga zakalat

pullari ishtirokchilarning elektron tarzda bergan arizalariga asosan ko'rsatilgan hisob raqamga qaytarib beriladi yoki keyingi savdolarda qatnashish uchun o'tkazilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun manzil:

Samarqand shahri Kamol Otaturk ko'chasi, 21-uy. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi (Davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlari muvofiqlashtirish bo'limi).

Ma'lumot uchun telefonlar:

+99866-233-96-64,

+99899-447-17-70.

Faks: +99866-233-73-54.

Facebookdagi rasmiy sahifa:

Sam Dav Aktiv

Veb-sahifa: privatization.davaktiv.uz

Internet tarmog'idagi veb-sayt:

samarqand@davaktiv.uz

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Danabayev Umarga (2020-yil 10-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida

marhum Usmanov Sobir Usmonovichga (2008-yil 7-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Ergashev Karimga (2019-yil 21-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning

Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Shodiyev Davronga (1990-yil 16-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Roziqova Xursheda Jumayevnaga (2008-yil 11-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi no-

tarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xashimova Zuxraxonga (2022-yil 4-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

BEKOR QILINADI

Fuqarolar Abduraxmonov Akbar Baxodirovich va Tuychiyev Golibjon Kuychiyevichlar o'rtasida 2023-yil 14-oktabrda Samarqand shahri

O'zbekiston MFY, Arutyunov ko'chasi 4-uy, 5-"A"-xonadon uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Alieva Lola Zoirovna tomonidan tasdiqlanib, 202301714004925 raqam bilan qayd qilingan turar ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomasining asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi Yermaxmatov Mirjahon Alisherovich yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 30501976180033) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sohibqiron Amir Temur uning yoshligi, tarjimai holi, o'spirinligi, janglardagi jasorati, vatanparvarligi, sarkardaligidagi jang mahoratlari, qo'yinki, barcha ijobiy xislatlari haqida ko'p maqolalar, kitoblar yozilgan. Hujjatli va badiiy filmlar yaratilgan.

SOHIBQIRON HAYKALI qanday yaratilgan edi?

↓ 9-aprel – Amir Temur tug'ilgan kun



Karimov loyihada Amir Temurning ichki dunyosi, ruhi u yoqda tursin, tashqi qiyofasi ham o'xshamaganligini ta'kidlaydi: «Temurga xos shiddat, o'kamlilik, ayni chog'da salobat qani bu yerda? Holbuki, Amir Temurning nafaqat tashqi qiyofasini, balki ichki olamini ham ifodalab berish kerak. Unga qo'yiladigan haykal ham shunga yarasha bo'lishi lozim. Buning uchun ulug' bobomizning faoliyatini, shaxsiy hayotini,

asalarini, o'gitlarini puxta o'rganish zarur. Bu siymo obrazini yaratishga yengil-yelpi qarab bo'lmaydi».

Gap shunda bo'lganki, Amir Temurning ham inson, ham davlat boshlig'i, ham donishmand sifatidagi faoliyati har qanday shaxs, har qanday davlat rahbari yoxud har qanday sarkarda uchun namuna, tengi yo'q bir maktabdir. Birinchi Prezidentimiz esa buni teran, atroflicha o'rgangan bo'lgan, albatta. Islom Karimov o'zining har bir nutqida Amir Temur tuzuklaridan misollar keltirishi bejiz bo'lmagan.

«Shunday qilib, Amir Temur haykalini yaratish jarayoni qizg'in davom etdi, – deb yozadi M. Hazratqulov. – 1993-yilning bahor oylari edi. Prezident qaysidir mamlakatdan safardan qaytdi. Samolyotdan tushishi bilan aeroport binosiga kirib, Temur haykalining yangi loyihasini ko'zdan kechirdi. Buni iste'dodli haykaltarosh Ilhom Jabborov ishlagan edi...».

Bu borada ishtirokchilar bilan ko'pgina bahs-munozaralar bo'ldi. Turli toifadagi rahbarlardan fikrlar so'raldi. Loyihada Amir Temur otda o'tirgan holda, chap qo'lida bayroq, o'ng qo'li bilan otning jilovini ushlagan holda aks ettirilgan bo'lgan. Islom Karimov loyiha muhokamasi ishtirokchilaridan: «Ot mingan odam jilovni qaysi qo'lida ushlaydi? Podshohlar ham bayroq olib yurganmi?» deb so'raydi va atrof-dagilarga qaraydi. Hamma jim bo'lib qolgan, hech

kim jur'at etib gapirishga jazm qilmagan. Shunda Mamatqul Hazratqulovdan yozuvchi ekanini, tarixni yaxshi bilishini, shuning uchun ham o'z fikrini aytishini so'ragan. Mamatqul Hazratqulov podshohlar bayroq olib yurmaganini aytgan.

«To'g'ri, – degan Islom Karimov, – bayroqni, ya'ni tug'ni olib yuruvchi maxsus odamlar bo'lgan. Ular tug'dorlar deyilgan. Ular podshohdan ancha ilgari yurganlar. Otning jilovi haqida gapiradigan bo'lsak, tizgin chap qo'lida tutiladi. O'ng qo'lida qamchi, agar jang payti bo'lsa, qilich ushlangan». Keyin esa Islom Karimov hazil aralash shu yerdagilarga qarata: «Hech otga minganmisizlar o'zi? Otga minayotganda chap oyoqni uzangiga qo'yib, o'ng oyoq otning ustidan oshiriladi... O'ng qo'lida jilov tutgan odamni hech ko'rimganman», deydi.

Shundan keyin u kishi bo'lajak haykalning eng mayda detallarigacha aytib beradi. Unda Amir Temurga xos salobat, ulug'vorlik, shiddat, ayni chog'da mehribonlik aks etmogi' shart, degan topshiriqni beradi haykaltaroshga. Shu tariqa bugun nafaqat mamlakatimiz poytaxtida Sohobqironning ulug'vor haykali qad ko'taradi, balki Samarqand, Shahrisabz shaharlarida, Rossiya va yer yuzining yana 6 ta mamlakatida Amir Temurning salobatli haykallari yaratilishida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning katta hissasi bor. Chunki Islom Karimov bo'lajak haykalni shunchalar tahlil etib, yo'l-yo'riq ko'rsatganki, eng bilimdon san'atshunos ham bo'lajak haykalni bu qadar teran ta'riflab bera olmasdi.

Izzatulla NORQUVATOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

Ramazonning fazli

Muqaddas Ramazon oyi yakuni-ga yetmoqda. Mazkur oying fazilati, hikmati islom dinining muqaddas manbalari hisoblangan Qur'oni karim va hadis ushariflarda keltiriladi.

Qur'oni karimda «Ramazon oyi odamlar uchun hidoyat (manbai) va to'g'ri yo'l hamda ajrim etuvchi hujjatlardan iborat Qur'on nozil qilingan oydir» deb marha-

mat qilinadi.

Ramazon ruhan poklanish, axloqan yuksalish oyi. Bu oyda shaytonlar kishanlanib, vasvasalari cheklanib, insonlarga o'zini tarbiyalash imkoni beriladi. Shu bois hadislar Ramazonda barcha axloqsizliklardan, gunohlardan poklanish targ'ib qilingan. Hatto Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Kim yolg'on gapirishni va unga amal qilishni qo'ymasa, Alloh uring taom va ichimlikni tark etishidan behojatdir», deganlar (Imom Buxoriy rivoyati). Ushbu

hadis ro'za ibodati kishining shuncha-ki yegulik va ichimlikdan o'zini tiyishdan iborat emasligini, balki gunohga sabab bo'ladigan barcha nojo'ya amallarni to'xtatib, axloqan poklanish yo'lini tutishi lozimligini ko'zda tutadi.

Ramazon salomatlik ovidir. Qadimda ham, hozir ham ochlik bilan davolash keng tarqalgan usullardan hisoblanadi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, inson jismonan sog'lom bo'lishi uchun bir yilda 28-29 kun ixtiyoriy och yurishi kerak ekan. Ramazon oyi aynan shuncha davom etadi. Alloh taolo biz, mo'min-musulmonlarga sog'ligimiz garovi bo'lgan ushbu muolajani ibodat qilib berib, ulkan ajru savoblarni, yaxshiliklarni va'da qilgan.

Yurtimiz musulmonlari muqaddas aqidalarga amal qilib, ezgu an'analar-

ni davom ettirib kelmoqda. Bu yil ham ma'naviy poklik, xayru saxovat ayyomi bo'lgan Ramazon oyi mamlakatimizda an'anaviy tarzda katta surur bilan o'tkazildi. Tarovih namozi va undagi Qur'on xatmi butun mamlakat bo'ylab yagona tartib-qoida bilan ado etildi. Ko'plab maskanlarda iftorlik dasturxonlari yoziyib, xalqimizga osoyishtalik, fayzu baraka tilab duolar qilindi. Jamiyatda do'stlik, birodarlik, mehr va saxovat rishtalari kuchaydi.

Oylar sultonining taassurotlari, istiqbolga tikilgan umidli nigohlar hammamizni mehr-oqibat, insonparvarlik, ezgulik, bag'rikenglik va saxovatlilik kabi fazilatlar-ga yo'lidosh qilsin!

Baxtiyor TURSUNOV,
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi.

Ramazon hayiti muborak bo'lsin!

Yaratganga adadsiz shukronalar bo'lsinki, yana muborak ro'za hayitiga yetdik. Allohning irodasi bilan xalqimiz hayit kunlarini katta shodiyona sifatida bayram qilish sharafiga musharraf bo'ldi.

Qo'shrabotda O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi hamda tuman hokimligi hamkorligida "Sardorlar forumi" doirasida turli ma'naviy-ma'rifiy kechalar, intellektual va milliy sport o'yinlari, tanlov va musobaqalar tashkil etildi.

Tadbirning ochilish marosimi Qo'shrabot shaharchasidagi bolalar va o'smirlar sport maktabida tashkil etildi. Unda tumandagi faol va uyushmagan yoshlar bilan birga viloyatning boshqa hududlarida faoliyat olib borayotgan sardorlar ham ishtirok etdi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi tashabbusi bilan bunday yirik tadbir tumanda ilk bor o'tkazilyapti, – deydi tuman hokimi o'rinbosari Xolbek Ko'baev. – Bu turli hududlarda yashovchi yoshlarni do'stlashtirishga, birlashtirishga xizmat qiladi. Yana bir ahamiyatli jihati, olis qishloqlardagi iste'dodli yoshlar izlab topilib, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga erishiladi.

"KAMALAK" SARDORI AYRIM YOSHLAR YETAKCHILARIDAN KO'RA SHIJOATLI

Tadbir doirasida "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" ham bo'lib o'tdi. Unda tuman hokimi Dilshod Shakarboyev hamda O'zbekiston

Iste'dodlar tog'u toshlar orasida qolib ketmasin!



yoshlar ittifoqi viloyat kengashi raisi Dilfuza Azizova qo'shrabotlik yoshlarning muammo va takliflarini tingladi.

Aholi va yoshlar o'rtasida so'rovlar o'tkazaypmiz, – deydi tumandagi 32-maktabning "Kamalak" sardori Shahrizoda Turdiyeva. – Ular savollarimizga javob bera olmasa, o'zimiz aytib, bilimlarini oshirishga harakat qilaypmiz. Keyingi safar yana yo'limizda uchrab qolganda uyalib qolmaslik uchun ular o'qishga harakat qilaypti. Javob berganlariga esa faqat rahmat aytib ketyapmiz. Agar to'g'ri javob bergan yoshga arzimagan sovg'a – kitobni berib, rag'batlantir-sak yanada yaxshi bo'lardi, deb o'ylayman. Buning uchun esa bizga homiylar kerak bo'lyapti. Uchrashuvda dadil turib,

taklif va muammolarini o'rta-ga tashlayotgan yosh o'g'il-qizlarni kuzatib turgan tuman hokimi "Ittifoq" va "Kamalak" sardorlari ayrim yoshlar yetakchilaridan ko'ra shijoatli ekanligini ta'kid-ladi. Sardorlar tashabbusi bilan tashkil etiladigan tanlov g'olib-lariga sovg'a olish uchun har oyda 10 million so'mdan mablag' ajratilishini aytdi.

ISTE'DODLAR TOG'U TOSHLAR ORASIDA QOLIB KETYAPTI

Olis qishloqda yashovchi yana bir yosh qiz rahbarlarga yuzlanib, yaqinda sardorlikka saylan-ganligi, ammo bu faoliyat bilan shug'ullanishga va kelajakda oliy ta'lim muassasasida o'qishga ota-onasi qarshi ekanligini aytdi: – Ayrim faol va tashabbuskor

yoshlarga havas qilaman. Biz yashaydigan qishloqda esa ak-sariyat ota-onalar qizlarini mak-tabni tugatishi bilanoq turmush-ga chiqarishadi. Ko'pchiligining orzu-umidlari armonga aylanadi. Iste'dodlari tog'u toshlar orasida qolib ketadi. Ota-onalarimiz siz kabi rahbarlarning so'zlariga qar-shi chiqmaydi, deb o'ylayman. Ular bilan shu kabi masalalarda suhbatlashishlarigizni, istaklari-miz haqida ularga to'g'ri tushun-irishlarigizni so'radim.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi raisi Dilfuza Azizova bu kabi olis qishloqlar-da yashovchi ayrim qizlarning ota-onalari bilan ham uchrashdi. Ularga iste'dodli, faol va tashab-buskor farzandlari borligini, bu qizlarga o'zgina imkoniyat yaratib berilsa, ulardan jamiyat rivoji uchun katta foydasi tegadigan mutaxassislar yetishib chiqishi mumkinligini aytdi. Erta turmush-ning salbiy oqibatlarini tushun-tirdi.

TADBIRLAR GULXAN ATROFIDAGI SUHBAT BILAN YAKUNLANDI

"Sardorlar forumi" doirasida varraklar sayli, milliy sport o'yinlari, harbiy qurol-asla-halar ko'rgazmasi tashkil etildi. Qo'shrabot adirlarida yoshlar kengash raisi va tuman hokimi bilan birga manzarali daraxt ko'chatlarini o'tqazishdi. Minifut-bol, tennis, shaxmat musobaqa-

lari, zakovat intellektual o'yin va boshqa tanlovlarda g'olib bo'lgan yigit-qizlar munosib taqdirlandi.

Bugungi tadbirlar o'ylaganimizdan ko'ra ko'proq natija beryapti, – deydi D.Azizova. – Tadbir tashkilotchilari, xususan, kengashimiz faollari bundan juda xursand. Asosiysi, biz bugun o'nlab qo'shrabotlik iste'dodlarni kashf qildik, desam mubolag'a bo'lmaydi. Sababi olis qishloqlarda yashovchi yoshlar orasida mohir rassomlardan, hunar-mandlardan, san'atkorlardan, sportchilardan qolishmaydigan iste'dod egalari ko'p ekan. Ularni izlab topdik. Endi esa bu kabi iqtidorli o'g'il-qizlarni munosib qo'llab-quvvatlash kerak, xolos. Bunday tadbirlarni ko'proq va kengroq miqyosda o'tkazishni oldimizga maqsad qilib qo'ya-yapmiz. Yangi-yangi loyihalar bilan imkoni boricha yanada olis qishloqlarga kirib borishimiz kerakligini anglayapman.

Kecki payt Pichot mahal-lasi hududida cho'ponlar bilan uchrashuv tadbiriga yakun ya-sadi. Unda yosh va yoshi katta cho'ponlar tadbir ishtirokchilari bo'lgan, turli hududlardan kel-gan yigit-qizlarga qishloq hayoti, chorvachilikning mashaqqatlari, mas'uliyati, shu bilan birga zavqli jihatlar haqida so'zlab berdi. Suhbat gulxan atrofida o'tkazil-gani yoshlar uchun unutilmas bo'ldi.

To'lqin SIDDIQOV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 681 nusxada chop etildi. Buyurtma 189. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonaning manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

Gazetaning navbatdagi soni 2024-yil 13-aprel, shanba kuni chop etiladi.

ISSN-201667X



91772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda